

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Shermuhammadov

Xalq ardog'idagi til - mangu barhayot.....	6
--	---

PEDAGOGIKA

T.Egamberdiyeva, O.Ashurova

Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirishning tahliliy omillari.	9
---	---

U.Maqsudov, R.Rahmonova

Ommaviy axborot vositalari mediasavodxonlik kompetensiyalarini shakllantirish obyekti sifatida.....	12
---	----

M.Suyunova

Pedagogik tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyatlari va uni tashkil etish tamoyillari.....	17
--	----

N.Saidova, B.Abdullayeva

Bo'lajak boshlangich sinf o'qituvchilarining axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishni modeli	20
---	----

X.Tojiboyeva

O'smir yoshdagi o'quvchilarda gender o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	24
--	----

A.Kalliyev

Ijodkor talabalar bilan ishlashda pedagoglik mahorati va usullar	27
--	----

I.Usmonaliev

Tarixiy tafakkur orqali bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash omillari usullarini pedagogik taxlili.....	32
--	----

FALSAFA, SIYOSAT

A.Yuldashov

O'zbekistonda intellektual mulk huquqi muhofazasini ta'minlashda ta'limning ahamiyati.....	37
--	----

Q.Aliqulov

Innovatsion va transformatsion o'zgarishlarning yoshlar iqtisodiy faolligiga ta'siri	41
--	----

TARIH

X.Boymirzayev, Z.Jobborov

Sovet hukumatida 20-30 yillarda amalga oshirilgan targ'ibot-tashviqot ishlari tarixidan.....	46
--	----

X.Mamajonov

Amir Temur davlati va oltin o'rda o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvi va diplomatik aloqalarning boshlanishi.....	49
--	----

A.Aloxunov, A.Mamasiddiqov

Farg'ona vodiysidagi dalvarzin yodgorligining mudofaa tizimi xususida	53
---	----

A.Abduxalimov

Vodiy viloyatlari qishloq aholisining ijtimoiy jihatdan muhofaza qilinishi	57
--	----

I.Yusupov

O'zbekistonda hududiy telekanallarning tashkil etilishi va rivojlanish tarixi	62
---	----

I.Turdiyev

Jizzax vohasi aholisining oila va nikoh bilan bog'liq an'analar va Marosimlari	67
--	----

Liang Yun, Xi Tongyuan, Ra'nogul Yusuf, N.Kambarov

O'zbekistonning Samarqand shahridagi Sazagan yodgorligining M11 qabrida olib borilgan qazuv tadqiqotining hisoboti	70
--	----

ADABIYOTSHUNOSLIK

L.Axmadaliyev

Po'latjon Qayyumiy zamondoshlari xotirasida	85
---	----

O'ZBEKISTONNING SAMARQAND SHAXRIDAGI SAZAGAN YODGORLIGINING M11 QABRIDA OLIB BORILGAN QAZUV TADQIQOTINING HISOBOTI

EXCAVATION REPORT OF THE M11 TOMB OF THE SAZAGAN IN THE CITY OF SAMARKAND OF UZBEKISTAN

ОТЧЕТ О РАСКОПКАХ КУРГАН М11 САЗАГАН В ГОРОДЕ САМАРКАНД УЗБЕКИСТАНА

Liang Yun¹, Xi Tongyuan², Ra'nogul Yusuf³, Nasibillo Kambarov⁴

¹Liang Yun

– Shimoli-g'arbiy universitet professori.

²Xi Tongyuan

– Shimoli-g'arbiy universitet o'qituvchisi, PhD.

³Ra'nogul Yusuf

– Shimoliy-g'arbiy Universiteti PhD doctor.

⁴Nasibillo Kambarov

– Farg'ona davlat universiteti Jahon tarixi

kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Shimoli-g'arbiy universitet O'rta Osiyo arxeologik guruhi O'zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologik tadqiqotlar instituti hamkorlikda 2014, 2015, 2016-yillarda Sazagan qishlog'idagi qabrlarda qazuv ishlarini olib bordi. Qazuv maydonida turli tipdagi qabrlar tadqiq qilindi. 2016-yil M11 qabridagi ikkinchi qabr M11-2 da qazuv ishlari olib borildi va M11da tadqiqot yakunlandi. Ushbu maqolada 2016-yilgi tadqiqot natijalari haqida ma'lumot beriladi.

Аннотация

В 2014, 2015, 2016 годах Среднеазиатской археологической группой Северо-западного университета совместно с Институтом археологических исследований Академии наук Узбекистана проводились раскопки в курган в селе Сазаган. На раскопе исследованы разные типы курган. В 2016 году были проведены раскопки в M11-2 и завершены исследования в курган M11. В данном отчете представлена информация о результатах исследования 2016 года.

Abstract

In 2014, 2015, 2016, the Central Asian Archaeological Group of the North-Western University, in cooperation with the Institute of Archaeological Research of the Academy of Sciences of Uzbekistan, carried out excavations in the tombs in the village of Sazagan. Different types of graves were studied at the excavation site. In 2016, excavations were carried out in M11-2 and research was completed in M11 tombs. This report provides information on the results of the 2016 research.

Kalit so'zlar: Sazagan, M1-2, Qang' madaniyati, oltintaqinchoqlar, kattatipdagiqabr, qabrkirishyo'li, kuvganqatlam, temir topilmalar.

Ключевые слова: Сазаган, M1-2, канжу культура, золотые находки, курган крупного типа, вход в курган, обугленный слой, железные находки.

Key words: Sazagan, M1-2, Kang culture, gold finds, large-type tomb, entrance of tomb, charred layer, iron finds.

KIRISH. Sazagan yodgorligi O'zbekistoning Samarqand shaxridan 20 km janubi-g'arbda, Sazagan qishlog'ining janubida joylashgan va ikki tomon sharq va g'arb tomonida tog'lari mavjud (1-rasm). 2014-yil Shimoli-g'arbiy universitetning O'rta Osiyo arxeologik guruhi O'zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologik tadqiqotlar instituti bilan tuzilgan guruh ushbu yodgorlikda keng qamrovli qidiruv tadqiqot ishlarini olib bordi va aniqlangan qadimiyat izlariga ko'ra bu joy 5 ta hududga bo'lindi (I-V hududlar)[1, 31]. 2015-yil sentabr-oktabr oylarida II hududda, V hududning 5 ta kichkina tipdagi qabrlarida va 1 ta jurar-joy qoldiqlarida qazuv ishlari amalga oshirildi[2,]. Yodgorlikning I hududi Sazagan qishlog'ining sharqiy tomonida joylashgan, katta va o'rta tipdagi qabrlar to'plangan bu hududning yer yuzasida uyumlar juda ko'p. 2016-yil may-iyul oylarida hamkorlikdagi arxeologik guruh Sazagan yodgorligining I hududida katta tipdagi uyumga ega qabrda ya'ni M11 da qutqaruv-qazuv tadqiqot ishlari olib borildi. Ular orasida 11-raqamli qabr (M11) Sazagan qishlog'ining shimoli-sharqiy burchagida mahalliy aholiga tegishli hovlida joylashgan, janubiy tomonda 355metri joylashgan. Geografik koordinatasiga ko'ra 39°32'28.715" shimoliy kenglikda va 66°45' 11.507" sharqiy kenglikda joylashgan, dengiz sathidan balandligi 769 metr. Uning tuproq uyumining shimoliy, g'arbiy va janubiy uch tomoni mahalliy aholi tomonidan

TARIX

buzilgan. Qazib o'rganilganda tuproq uyumi ostida ikkita, yo'nalishi turli bo'lgan qabrlar topildi. Uyumning qoq o'rtasining ostidan Shimol-janub yo'nalishdagi M11-1 tartib raqami bilan belgilangan qabr, sharq-g'arb yo'nalishdagi, tartib raqami M11-2 bo'lgan qabr mavjudligi va M11-1 M11-2 ni buzib qurilganligi aniqlandi (2-rasm, 4). Ushbu qazuv tadqiqotining natijalari quyida keltirib o'tamiz.

NATIJA VA MUHOKAMA I. Qabrning tuzilish shakli. (1) M11-1

M11-1 vertikal chuqurda qiyalangan zina va yo'lakka ega qabr xonasidan iborat.

1. Qabr yuzasidagi tuproq uyumi

Tarxiga ko'ra yumaloq bo'lib, mahalliy aholining tuproq olishi natijasida tuproq uyumining yuqori tepa qismi va atroflari turli darajada buzilgan. Tuproq uyumining kesmasiga ko'ra yuqori qismi kesilgan piramida shaklida, uning yuqori qismi diamteri 12 metr, quyi qismi diamteri 42 metr, balandligi 3.6 metr. Uyumning tarkibiy tuzilishi, rangi turli bo'lgan tuproq uyumlaridan qurilgan, shuningdek, shimoliy kesmasining devoridagi qatlamlarni ko'radigan bo'lsak, yuqoridan pastga 8 qatlam ekanligi kuzatildi (5-rasm).

1-qatlam: Sarg'ish jigarrang tuproq qatlamli, yumshoq tuproqdan qurilgan, qalinligi 50 sm.


2-qatlam: Gorizant holatda kulrang-sariq rangli tuproq bilan uyum usti yopilgan, tuproq holati zich, qalinligi 100 sm.

3-qatlam. To'ldirib yopilgan tuproq qatlami ostidagi to'q sarg'ish jigarrang qayta to'ldirilgan tuproq, tuproq holati zich, qalinligi 130 sm.

4-qatlam. Voranka shaklida to'ldirilgan kulrang jigarrang rangdagi sirpanchiq jich tuproq, qalinligi 80 sm.

5~7-qatlamlar. Ushbu qatlamlar qabr chuquri qirg'oqlariga uyilgan tuproq, zich holatda, qabrni qazish jarayonida olingan tuproq bo'lishi mumkin. Uning o'rtasidagi 5-qatlam: jigarrang, qalinligi 50-70 sm; 6-qatlam: kulrang jigarrang, qalinligi 70-80 sm, 7-qatlam: to'q jigarrang, qalinligi 60 sm.




8-qatlam: To'q jigarrang yoyilgan tuproq, chunki qabr qurilishidan oldin yer tekislanib shakllantirilgan va qabr tomonidan buzilgan, tuproq jich, gorizantalliga yoyilgan, qalinligi 5 sm.




1-rasm. Yodgorlikning joylashuv xaritasi.

Tuproq uyumi ostida sharqiy tomonida janubdan shimolga yoy shaklida tosh aylana qoldiqlari izlari saqlangan (2016SS-IM11 : Q1) , uzunligi 12 metr, turli o'lchamdagi soy toshlari yoyilgan tuproq ustiga ikki qator qilib terilgan; tuproq uyumining shimoliy ochiq qismidagi uzunligi 3.5 metr, kengligi 1.6 metr, balandligi 0.2 metr. Tuproq uyumining ostida g'arbiy tomonida yoy

shaklida bir ariq chuquri (2016SSIM11:G1) bor, uzunligi 6 metr, kengligi 0.4-0.7 metr, shuqurligi 0.2 metr, ariq ichi sarg'ish jigarrang tuproq bilan to'ldirilgan, topilmalar mavjud emas.



3-rasm. M11 tarxi va kechmasining chizmasi
1,4. temir o'q uchi, 2. tilla naycha,
3. suyak buyum, 5,7. singan temir bo'lagi,
6. sopol isiriqdon, 8, 9. tilla bo'rtma tugma,
10. odam tishi, 11. bronza bo'lagi



4-rasm. M11-1 qabr xonasi tarxi

1-6. qo'y suyagi, 7. Suyak buyum 8,20. Tilla bo'rtma tugma 9,24. Temir mix, 10. Bronza yarim halqa, 11. Temir o'q uchi, 12~14 temir bo'lagi, 15. Sopol kosa, 16, 18. Tilla naycha, 17,19. Tilla halqa, 21. Tilla mix, 22,23,25,28,29. Temir bo'laklari, 26,27. Temir halqa, 30. Tilla kamar to'qasi, 31-34. Odam tishi.



5-rasm. M11 tuproq uyumi (Shimoldan janubga qarab rasmga olingan)

2. Qabr yo'lagi

M11-1 qabri vertikal holatda chuqurda zinaga va qiyalangan yo'lakka ega (6-rasm). Qabr yo'lagi o'qining yo'nalishi 26.7° , qabr yo'lagining og'iz qismi shimoldan janubga uzunligi 10 metr, sharqdan g'arbga kengligi 3 metr, tarxiga ko'ra ko'rininshi to'rtburchak shaklda, ko'ndalang kesmasiga ko'ra ko'rininshi og'iz qismi katta tag qismi kichik bo'lgan narvon ko'rinishida, ikki devori oddiy. Tag qismi eni 1.02 metr, qabr yo'lagi ostidan qabr yo'lagi og'zigacha 3.5 metr. Qabr yo'lagining ichi sarg'ish jigarrang yumshoq tuproq bilan ko'milgan, muayyan miqdorda mayda qum, kam miqdorda tosh bo'laklari va loydan yasalgan qizil sopol bo'laklari mavjud. Qabr yo'lagi janub shimol ikki qismga bo'lingan. Janub tomonning 5 metrli qismi janubdan shimolga tepadan pastga 7 pog'anali zina bo'lib, xar bir pog'ona zinaning sharq va g'arb ikki tomoni bo'rtib chiqqan, o'rta qismi biroz pastga yoy shaklida cho'kkan, birinchidan beshinchigacha bo'lgan zinalar tarxiga ko'ra to'rtburchak shakliga yaqin, oltidan yettinchigacha bo'lgan zinalar tarxiga ko'ra yarim yoy shakliga ega, zina yuzasi kengligi 0.3~0.5 metr, balandligi 0.15~0.2 metr. Beshinchidan yettinchigacha bo'lgan zinalarning sharqiy va g'arbiy tomonida sarg'ish jigarrang chirigan daraxt qoldiqlari mavjud, yog'och plankalari qoldiqlari bo'lishi kerak. Shimoliy tomonining 5 metri uzun tokchali pog'ona va nishoblikka ega yo'lakdan iborat; Qabr yo'lagining tag qismi janubi baland shimoli past, qiyalik darajasi 15° , uzunligi 2.55 metr, kengligi 2.17 metr. Qabr yo'lagining janubiy tomonidagi yettinchi zina va qabr yo'lagining shimoliy qismi sharq va g'arb devorlari ostidagi uzun tokcha bilan bog'langan, uzun tokchani ichki tomoni vertikal. Uzun tokchani usti va uning ichki tomoni, qabr yo'lagining osti to'liq qizg'ish jigarrang chirigan yog'och izlari mavjud, bu qism ham yog'och taxtalar bilan qoplangan bo'lishi kerak. Uzun tokcha uzunligi 4.6 metr, kengligi 0.28~0.55 metr, balandligi 0.95 metr. Qabr yo'lagining shimoli loy g'ishtli devor bo'lib, vertikal qabr yo'lagi va shimoliy devor qabr ichki yo'lagi o'rtasida joylashgan, eshikni yopish uchun foydalanilgan.



6-rasm. M11-1 qabr yo'lagi (Janubi-g'arbdan shimoli-sharqqa qarab rasmga olingan)

TARIX

3. Qabr eshigini yopish uchun qo'yilgan to'siq

M11-1 qabr yo'lagi va qabr ichki yo'lagining o'rtasida qabr eshigini yopish uchun to'siq konstruksiyasi mavjud, uning tashqi tomoni loydan yasalgan



7-rasm. M11-1 qabr yo'lagidagi kirishni yopgan to'siq
(Janubdan shimolga qarab rasmga olingan)



8-rasm. M11-1 qabr xonasi va kirishni yopgan to'siq
g'ishli devor mavjud, yuqori kengligi 1.85 metr, quyi kengligi 1.05 metr, balandligi 1.4 metr, devor qalinligi 0.3 metr. Hom g'ishtli devor vertikal chuqurga ega qabr yo'lagi va shimoliy devori qabr ichki

yo'lagi o'rtasiga joylangan, Chuqur devorining yuqori qismi sharqiy va g'arbiy tomonlari uchlari qabr xonasi bilan bir xil balandlikda; qabr yo'lagi va qabr ichki yo'lagi, qabr xonasi bir xil chuqurlikda, pol qismi bir-biriga bog'langan va bir tekislikda bo'lib, loy g'isht ushbu tekislik ustiga qurilgan. G'ishtlar sarg'ish jigarrang ishlangan loyni presslash orqali tayyorlangan, 35 ta blok g'isht mavjud, xususiyatlari bir xil, uzunligi 50 sm, eni 40 sm, balandligi 12 sm. G'ishlar qavat-qavat qilib yotqizilgan bo'lib, g'ishtlar orasidagi bo'shliq loy aralashma bilan to'ldirilib mustahkamlangan. G'isht devorining butun ko'rinishi T shaklida, yuqoridan pastga 12 qavat, 1~3-qavatlarining sharqiy va g'arbiy uchlari qabr yo'lagi chuqurining devoriga yetib boradi, xar bir qavat 7 ta loy g'isht bilan qoplangan. 4~12 qavatlarining sharqiy va g'arbiy tomonlari uzun tokcha devoriga ulangan bo'lib, xar bir qatorda 3 tadan loy g'isht bilan qoplangan (7-rasm). G'isht devorining shimoliy tomoni sharq va g'arb tomonlari orasidagi loyda vertikal holatda joylashtirilgan 10 ta loy ichiga botib kirgan yarim dumaloq shakl mavjud, ular ichida jigarrang rangga ega yog'ochning chirigan qoldiqlari va yongan yog'och qoldiqlari saqlangan, ular eshikni yopish uchun qo'llanilgan yog'och ustunlar bo'lishi kerak. Yog'och botiqlarining saqlangan balandligi 1.5 metr, gorizantal diametri 0.07~0.1 metr. Qabr ichki yo'lagining shimoliy tomonidagi loyda saqlanib qolgan yog'och ustun izlarining pastki qismida to'q jigarrang chirigan yog'ochning yiqilgan izlari aniqlandi (8-rasm). Qabr ichki yo'lagini yopish tartibi avval 10 dona yog'och g'o'lalar (ustun) qabr xonasining kirish eshigiga vertikal tarzda terib chiqilgan, keyin ustunlarning tashqi tomonidan g'isht devor qurilgan, g'ishlar orasiga, g'isht va terilgan ustunlar orasiga loy tashlab mustahkamlab chiqilgan. Vaqt o'tishi bilan tik terilgan yog'och ustunlar chirigandan keyin qulagan va uning o'rnida yarim yumaloq shaklidagi iz qolgan. Tashqi tomonda qabr yo'lagi tuproq bilan to'ldirilganda bosim sababli g'isht devor ichki tomonga og'ishga moyillik bo'ladi, natijada terilgan yog'och ustunlarning yuqori qismi singan va ichkariga qulagan.

4. Qabr ichki yo'lagi va qabr xonasi

Kirish eshikni yopgan devor bilan qabr xonasining o'rtasida qisqagina qabr ichki yo'lagi bor, kirishni to'sgan yog'och ustun va qabr tashqi yo'lagining ostki qismining sharqiy va g'arbiy tomonlari bir xil kenglikda. Uning tarxi chizmasiga ko'ra to'rtburchak shaklda, sharqdan g'arbga uzunligi 1.18 metr, shimoldan janubga kengligi 0.66 metr. Tom qismi qulab tushgan, shakli aniq emas. Qabr xonasining tarxi chizmasiga ko'ra trapetsiya shakldagi ko'rinishga ega, uning shimoliy tomoni uzunligi 2.2 metr, sharqiy tomoni uzunligi 1.6 metr, janubiy tomoni uzunligi 2.8 metr, g'arbiy tomon uzunligi 1.4 metr. Yuqori qismi qulab tushgan, lekin, yumaloq gumbaz shaklda bo'lgan bo'lishi mumkin, saqlangan balandligi 1.6 metr (4-rasm). Pol yuzasida tekis oq dog'lari mavjud. Qabr xonasining janubiy tomonida to'q jigarrang yog'och tobutning yongan izlari bor, yog'och tobut sharqdan g'arbga gorizantal holatda joylashtirilgan bo'lib, sharqiy qismi qabr xonasining sharqiy devori tomonida o'rnatilgan. Qayta tiklangandagi uzunligi 2.2 metr, kengligi 0.66 metr, saqlangan balandligi 0.25 metr. Yog'och tobutning janubiy tomonining sharqiy va g'arbiy qismlaridan 1 tadan temir buyum topildi, sharqiy tomondagisi ilmoq shakliga o'xshash, g'arbiy tomondagisi temir halqa bo'lib, yog'och qismlarini birlashtirib turish uchun mo'ljallangan. Tobutning sharqiy tomoni kuli ostida sarg'ish jigarrang kukunli odam suyaklari topilgan, ularning shakli tanib bo'lmaydigan daraja; bundan tashqari ikkita tish va ikkita barmoq suyaklari mavjudligi aniqlandi. Yog'och tobut g'arbiy tomoni tozalanganda ikkita tish chiqdi. Odam suyagi chirigan, izlari aniq emas, jasatning soni, dafn qilish usullari, bosh yo'nalishini aniqlashning imkoni yo'q. Tobut kuli ostida 65 dona kichik tilla buyumlar, uning ichida 60 dona tilla naycha, 2 dona tilla bo'rtma tugma, 2 dona tilla halqa, 1 dona tilla kamar to'qasi, ushbu to'plam tobut ostidan sharqiy va markaziy qismlariga tarqagan holatda aniqlandi. Tobutning shimoli-g'arbiy burchagi tashqi tomonida 1 dona qizg'ish jigarrang sopol ko'za bor. Yog'och tobutning janubiy tomonida tim qora yog'ochning kuygan qismi mavjud bo'lib, sharqdan g'arbga uzunligi taxminan 1.5 metr, shimoldan janubga kengligi taxminan 0.5 metr, uning sharq va g'arb ikki tomonida to'rtburchak shakldagi temir qisgich (changgak - sheva) bilan tobut qismlari birlashtirilgan. Bundan bilish mumkinki, balki bu boshqa tobutga tegishli bo'lishi mumkin, lekin chirigan odam suyaklari topilmadi. Qabr xonasining chuquri qurulish vaqtida janubiy-g'arbiy burchagi qulab tushganligi sababli, qabr xonasining janubi-g'arbiy va qabr ichki yo'lagining g'arbiy tomonini hosil qilish uchun uch qavatli hom g'ishtdan qadimgi asos qayta tiklandi. Qabr xonasining janubi-g'arbiy qismida bir dona to'rt tomonli shaklga ega kichik chuqur mavjud, uning devorlari qiya nishoblangan holatda bo'lib, chuqurligi 0.5 metr; uning janubiy devori g'ishli, uning sharqiy tomonida tim jigarrang chirigan yog'och qoldig'i va qo'yning yelka kurak suyagi, janubiy-g'arbiy

TARIX


qismida odamning 1 ta tish suyagi, 2 ta qo'l-oyoq suyagi, 3 ta tilla naycha, 13 ta kichkina tilla mix, 10 ta bir joyga yig'ilgan holatdagi kichkina tipdagi yarim dumaloq shaklga ega bronza halqalar, 1 ta temir o'q uchi, 2 ta o'qning asos qismi bo'lagi topildi (8-rasm). Bu qurbonlik qo'yiladigan chuqur bo'lishi mumkin.

(1) M11-2

M11-2 vertikal holatdagi chuqur bo'lib, nishobli qabr yo'lagiga ega, qabr va yo'lak bir chiziqda joylashgan qabr. Qabrning butun ko'rinishi shimoli-g'arb – janubi-sharq yo'nalishda, qabr yo'lining yo'nalishi 290°, qabr yo'lagi g'arb tomonda bo'lib, tarxiga ko'ra, g'arb tomoni tor sharq tomoni keng bo'lgan trapetsiya shaklida. Uzunligi 11 metr, g'arbiy qismi kengligi 1.05 metr, sharqiy qismi kengligi 2 metr, devorlari tik tushgan holatda; Qabr yo'lagining pol qismi g'arb tomoni baland sharq tomoni past bo'lgan nishob holatda, nishoblik 11° burchak ostida, sharqiy tomoni chuqurligi 2.8 metr; qabr yo'lagining sharqiy devori ostidan qabr xonasi boshlanadi, qabr xonasi og'zida toshlar va kam miqdorda hom g'isht aralashtirib jichlanib kirish qismi yopilgan. Qabr xonasi tepa qism ark shaklida, devorlari tik tushgan, poli tekis, pol qismi biroz ko'k va qora rangda, qabr yo'lagining poli 1.1 metr balandroq. Qabr xonasining tarxi ko'rinishi to'rtburchak shaklda bo'lib, uzunligi 9.4 metr, kengligi 1.5~2.2 metr, qayta tiklangandagi balandligi 1.6 metr, uning joylashuvi qabr yo'lagi bilan bir o'qda joylashgan. Ushbu qabr M11-1 tomonidan buzilgan, qabr yo'lagining g'arbiy devori ustida M11-2 ning xonasining bo'shliq qismi aniqlandi. Ushbu qabrning xonasi muhandislik inshooti ostida bo'lganligi sababli, ushbu muhandislik inshootining tashqi tomoni (g'arb) dagi qabr yo'lagi va qabr xonasining bir qismidagina tozalash ishlari amalga oshirildi. Qabr yo'lagining sharqiy tomonidan 3 dona o'q uchlari, 4 dona tillo naycha, 1 dona yumaloq shakldagi bo'rtma tugma, 2 dona 3 burchak shakldagi tillo bo'rtma tugma, 1 dona qora sopol isiriqdon topildi (3-rasm).

II. Aniqlangan topilmalar

Topilmalarning umumiy soni 111 dona bo'lib, sopol idish, tilla, temir, bronza, suyak kabi materiallardan yasalgan bir nechta turdagi buyumlar topildi.



9-rasm. Sopol idishlar

(1) Sopol idish

2 dona. Yakka dastali ko'za va isiriqdon, xar biri 1 donadan.

Yakka dastali ko'za 1 dona (M11-1: 15). Qum qo'shib yasalgan qizil sopol. Og'iz qismi

to'g'ri, qirg'oqlari tekkis, labi yumaloq, qisqa bo'yinli, og'iz qismi qirg'oqlaridan yelkasigacha halqa shaklida dastasi bor, yelkasi bo'rtib chiqqan, qorin qismi yumaloq, katta yuzali asosga ega, yuzasi silliq. Og'iz qismi diametri 8.6 sm, qorin qismi diamteri 24.1 sm, tag qismi diametri 15.6 sm, balandligi 28.2 sm (9-rasm: 1, 10).

Isiriqdon 1 dona (M11-2: 6). Tarkibiga qum qo'shilgan qora rangli sopol idish. Tekkis og'izli, aylana labga ega, qor devorlari chuqur qiyalangan, tutkich qismi qisqa yumaloq asosga bog'langan, tutkich o'rta qismi kichaygan. Butun tanasi silliq. Og'iz qismi diamteri 17.8 sm, qorin qismi diametri 17 sm, asos qismi diametri 9 sm, balandligi 19.2 sm, yumaloq asosining balandligi 8,6 sm (9-rasm: 2, 11).

(2) Tilla topilmalar

88 dona, ular ichida naycha, bo'rtma tugma, mix, halqa, kamar to'qasi kabi 5 turi mavjud. Ko'p miqdordagi tilla topilmalar to'plamidan M11-1 qabr xonasining janubi-sharqiy tomonidan, tilla mixlar M11-1 qabr xonasining janubi-g'arbiy qismidagi trapetsiya shaklidagi qurbonlik chuquridan topilgan.

Naycha 67 dona. Ulardan M11-1 dan 63 dona, M11-2 dan 4 dona chiqdi. Hammasi bo'sh quvurcha shaklida bo'lib, yuzasi tekkis. M11-1: 18-8 topilmasi uzunligi 12 mm, diametri 2.8 mm, og'irligi 0.18 gr (12, 32- rasm: 1). M11-1: 18-45-topilma uzunligi 5.1 mm, diametri 1 mm, og'irligi 0.03 gr (13, 32 – rasm: 2).

Bo'rtma tugmacha 5 ta. Kiyim uchun moslangan bezak taqinchoq. Ulardan yumaloq shakldagisi 3 dona, yupqa oltin varaqdan buklab yasalgan. M11-1: 8-topilmasi yarim shar shakl shaklida bo'lib yuza qismi silliq, uning qirg'oqlarida simmetrik ikkita yumaloq teshigi bor. Diametri 7~7.3 mm, balandligi 3.6 mm, qalinligi 0.2~0.3 mm, og'irligi 0.16 gr (14, 15, 32-rasm: 3). Shuningdek, qorin qismi uch burchak shaklda bo'lgan 2 dona yasaliş usuli yumaloq shakldagi tilla bo'rtma tugma bilan o'xshash va uchala tomonining xar birida bittadan teshigi bor. M11-2: 9-2 topilmasining ikki tomonida to'rttadan uchburchak shakldagi bosib shakl berilgan izlari mavjud. Tomonlari uzunligi 8.2 mm, tag qismi uzunligi 6.1 mm, qalinligi 0.4~0.6 mm, og'irligi 0.12 gr (16, 17, 32- rasm: 4).

Mixcha 13 dona. Katta kichik ikki turga bo'linadi, ikkalasi ham bosh va tana qismlardan tashkil topgan. Bosh qismi qo'ziqorin shaklida, tana qismi ilgak shaklida ko'rinadi. M11-1: 21-9 topilmasi bosh qismi diametri 3.2 mm, tana qismi uzunligi 12.7 mm, tana qismi diamteri 0.74~1.1 mm, og'irligi 0.25 gr (18-32-rasm: 5). M11-1: 21-5- topilmaning bosh qismi diametri 2.5 mm, tana qismi uzunligi 7.1 mm, tana qismi diametri 0.9~1 mm, og'irligi 0.11 gr (19-32-rasm: 6).

Halqali to'qa 2 dona. M11-1: 17 topilmasi asosiy halqa va qo'ziqorin shaklidagi qoziqchanning birikuvidan iborat, qo'ziqorin shaklidagi qoziqcha yumaloq halqaning yuzasiga perpendikulyar mustahkamlangan. Aylana halqaning tashqi diametri 23.5~24.8 mm, ichki diamteri 15.6~16.5 mm, qalinligi 3.9 ~4.5 mm, qo'ziqorin shaklidagi qoziqchanning diametri 6.8~6.9 mm, balandligi 6.6 mm, ustunchaning yuza qismiga bitta yumaloq munchoq donasi aylana shaklidagi o'rnatilgan bezak qismi ichiga o'rnatilgan. Yumaloq shakldagi bezak ichida bir dona diametri 2.8~4 mm bo'lgan och yashil rangli tosh mavjud bo'lib, og'irligi 19.07 gr (20, 21, 32-rasm: 8). M11-1: 19 – topilma butun tanasi yumaloq halqa va yumaloq qoziq shakllaridagi ikki qismni birikuvidan iborat va halqaga perpendikulyar holatda. Halqaning tashqi tomoni diamteri 20.3~23.7 mm, ichki diamteri 16.5~16.9 mm, qalinligi 3.8~3.9 mm, yumaloq qoziqning diametri 3.6~4.2 mm, balandligi 4.2 mm, og'irligi 17.81 gr (22, 23, 32-rasm: 9).

TARIX



10-rasm. Yakka dastali sopol ko'za
(M11-1: 15)



11-rasm. Sopol isiriqdon
(M11-2: 6)



12-rasm. Tilla naycha (M11-1: 18-8)



13-rasm. Tilla naycha (M11-1: 18-45)



14-rasm. Tilla bo'rtma (M11-1: 8)
orqa tomoni



15-rasm. Tilla bo'rtma (M11-1: 8)

Kamar to'qasi 1 dona (M11-1: 30). Bosh qismi yumaloqqorin qismi bukilgan, yuzasi silliq, uzunligi 21 mm, yuqori qismi kengligi 9.7 mm, o'rta qismi kengligi 5.1 mm, past qismi kengligi 8.3 mm, yuqori qismi diametri 1.65 mm, kamar to'qasining tashqi konturi diametric 2.3 mm, og'irligi 4.81 gr (24-32-rasm: 7).

(3) Temir buyumlar.

Jami 20 dona bo'lib, asosan o'q uchlari, mix, temir bo'lagi, halqa.

O'q uchi 7 dona. M11-1: 11 bilan raqamlangan topilma, uch qismi uch qanotli va bo'yin qismi konus shaklida ko'rinadi, shikast yetgan. O'qning bosh qismi uzunligi 50.8 mm, qanotlarining kengligi 17 mm, bo'yin qismi saqlangan uzunligi 27.2 mm, diametri 8.5 mm (25-32- rasm: 11).

Mix 3 dona. Topilma raqami M11-1:13, yuza qismi jiddiy zanglagan, bir tomon tepa qismi tekis, ikkinchi tomon yumaloq konus shaklida bo'lib, uzunligi 41 mm, diametri 6.5 mm (32-rasm: 10).

Temir bo'lagi 8 dona. Topilma raqami M11-1:23, umumiy ko'rinishi "Г", bir tomoni toraygan konus va uning qolgan qismi yumaloq slindr shaklida. Butun qismi jiddiy zanglab shikast yetgan, asosan yog'och tobut qismlarini birlashtirishda foydalanilgan bo'lishi kerak. Diametri 5 mm, balandligi 28.6 mm, kengligi 33.6 mm, ko'nussimon dum qismi uzunligi 12 mm (16-rasm). Tartib raqami M11-1:25 bo'lgan topilma, kuchli zanglagan, ko'rinishi to'rtburchak shaklda. Uzunligi 72 mm, kengligi 29 mm, qalinligi 3.6 mm.

Shakl berilgan temir halqa 2 dona. Topilma raqami M11-1:26, ko'rinishi bir tomoni yopilmagan trapezoid shaklida bo'lib, tashqaridan ichkariga bukilgan, kesmasi to'rtburchak shaklida, kuchli zanglab shikastlangan, og'iz qismi ikki tomoni ham uchlangan o'tkir. Uzunligi 44 mm, kengligi 49 mm, qalinligi 4.5~4.8 mm (27, 32-rasmlar: 12).



16-rasm. Tilla bo'rtma (M11-2: 9-2)
orqa tomoni



17-rasm. Tilla bo'rtma (M11-2: 9-2)



18-rasm. Tilla mix (M11-1: 21-9)



19-rasm. Tilla mix (M11-1: 21-5)

TARIX



20-rasm. Tilla halqa (M11-1: 17)
orqa tomoni



21-rasm. Tilla halqa (M11-1: 17)



22-rasm. Tilla halqa (M11-1: 19)
orqa tomoni



23-rasm. Tilla halqa (M11-1: 19)



24-rasm. Tilla kamar to'qasi
M11-1: 19)



25-rasm. Tilla halqa
(M11-1: 19)



26-rasm. Temir bo'lagi (M11-1: 23)



27-rasm. Temir halqa (M11-1: 26)



28-rasm. Bronza yarim halqa
(M11-1: 10)



29-rasm. Bronza yarim halqa (M11-1: 10)
orqa tomoni




30-rasm. Suyak bezak buyum (M11-2: 3)



31-rasm. Tilla halqa (M11-1: 7)

TARIX



32-rasm. Topilmalar

1,2 tilla naycha (M11-1:18-8, M11-1:18-45), 3,4 tilla bo'rtma (M11-1:8, M11-1:9-2), 5, 6 tilla mix (M11-1: 21-9, M11-1: 21-5), 7 tilla kamar to'qasi (M11-1: 30), 8,9 tilla halqa (M11-1: 17, M11-1: 19), 10 temir mix (M11-1: 13), 11 temir o'q uchi (M11-1: 11), 12 temir halqa (M11-1: 26), 13 suyakli bezak buyum (M11-2: 3), 14 suyakli tartibsiz tomonga ega buyum (M11-1:7), 15 bronza bo'lagi (M11-2: 11), 16 Bronza yarim halqa (M11-1: 10)

(4) Bronza topilmalar

2 dona. Singan bo'lak va yarim halqadan xar biridan 1 dona.

Singan bo'lak 1 dona (M11-2: 11). Ikki bo'lakka bo'lingan, yarim aylana shaklida, saqlangan uzunligi 30 mm, qalinligi 0.3 ~ 0.4 mm (32-rasm: 15).

Yarim halqa 1 dona (M11-1: 10). Yarim yoy shaklida bo'lib, kichikinalardan kattalarga tomon tartiblab terilgan, jami 10 dona eng kattasining diametri 11 mm, kengligi 6 mm, eng kichikigining diametri 7.2 mm, kengligi 4.5 mm (18-19-32-rasm: 16).

(5) Suyak buyum

Bezak taqinchoq va aniq shaklga ega bo'lmagan buyum xar biri 1 donadan.

Bezak taqinchoq 1 dona (M11-1: 3). Qirralari tartibsiz yumaloq shaklda bo'lib, diametri 4.7

sm, qalinligi 0.5 sm, markaziy qismida teshigi bor va uning diametri 0.6 sm, bir qirg'oq tomonida oxirigacha yetmagan teshikcha xosil bo'lmagan, teshiklarining diametri 0.3 sm (30-32-rasm: 13).

Notekkis tomonlarga ega topilma 1 dona (M11-1: 7). Notekkis tomonli blokcha, yuzasi tekis. Uzunligi 2.4 sm, kengligi 1.5 sm, qalinligi 0.7 sm (31-32-rasm: 14).

XULOSA

Sazagan I tadqiqot hududidagi M11-1, M11-2 va avval e'lon qilingan II va V tadqiqot hududlaridagi qabrlar va turar-joy izlari bir davr va bir arxeologik madaniyatga oid bo'lib, unda ko'chmanchi chorvadorlar xususiyatini ko'rsatadi. Atrofdagi mavjud arxeologik materiallar bilan solishtirganda M11 miloddan avvalgi 1 – milodiy 1 asrlarga oid Kang' madaniyatining saqlanmalari ekanligini aytishimiz mumkin.

Samarqand vodiysidagi Zarafshon daryosi o'rta oqimi So'g'diyona hududlariga tegishli. Bu hududda bronza davridan keyin Ahmoniylari davlati boshqaruvi ostida bo'lgan. Aleksandr sharqqa yurishidan keyin, yana ketma-ket Salafkiylar davlati va Yunon-Baqtriya davlati tasarrufida bo'lgan. Miloddan avvalgi II – I asrlar oralig'ida, Kang'lar Samarqand vodiysiga kirib kelib nazoratga oldi, uning nazoratini bitta kichkina podsholik – Sumo podsholigi qo'lida bo'lgan, hozirgi Navoiy viloyatiga yaqin joyda bo'lgan [3, 23]. Avvalroq bir davrga oid Samarqand vodiysida bir qancha qabrlar aniqlangan, masalan, Orlot qabristoni va Ko'ktepa chorvadorlar madaniyati qabrlari tuzilish shakliga ko'ra Samarqandning I tadqiqot hududidagi M11-1 bilan mutlaq bir xil bo'lib, qabr xonasi to'rtburchak shakldagi vertikal holatda qabr tashqi yo'lagining shimoliy tomonida joylashgan katakomba. Topilmalardan yakka dastali sopol ko'za, ko'zaning og'iz va bo'yin qismlar ham juda o'xshash. Ko'ktepa qabridan chiqqan bir tomonda o'ziga xos tasvir berilgan ornamentga ega Han davri oynasi, uning davri ikkala han davri o'rtasiga to'g'ri keladi. Uchta hududda aniqlangan qabrlar bir davrga va bir madaniy xususiyatiga ega. Ushbu o'xshash madaniyat – Kang' madaniyati. Biroq, Samarqandning kichik tipdagi qabrlari podboy tipda shakllangan, qolgan ikkala qabristonda bunday holat uchramaydi. Bu turdagi podboy tipdagi qabrlar boshqa madaniyatning ta'siri natijasida shakllangan bo'lishi mumkin. Bu, shuningdek, Sazagandagi kichik tipdagi qabrlar quyi tabaqani, katta tipdagi yuqori tabaqani ifodalaydi.

Izoh: Shaanxi provinsiyasi xalq hokimiyati "O'rta Osiyo arxeologiyasi" maxsus jamg'armasi grantini qo'lga kiritgan (tartib raqami: 2016YFE0203700). Qazuv tadqiqoti a'zolari: Liang Yun, Wang Jianxin, Liang Yun, Cao Hui, Xi Tongyuan, Wei Chunyuan, Wu Chen, Ra'nogul Yusuf, Lan Bo, Rakhmonov Ulug'bek, Hasanov Muttalib, Berdimurodov Amriddin, Suyunov Samariddin, Khamdamov Sukhrob, Kambarov Nasibillo.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 马健, 王建新, 陈爱东, 周新鄂. 2014年乌兹别克斯坦撒马尔罕盆地南缘考古调查简报. 西部考古 (第8辑), 2015年.
2. 西北大学丝绸之路文化遗产与考古学研究中心等《2015年度撒扎干遗址发掘报告》, 《西部考古》第12辑, 科学出版社, 2017年.
3. 郝树声《简论敦煌悬泉汉简(康居王使者册)及西汉与康居的关系》, 《敦煌研究》2009年第1期